

**BUXORO SHAHAR POLITEKNIKUMIDA PEARSON BTEC
XALQARO TA'LIM DASTURINI AMALIYOTGA JORIY ETISH
JARAYONLARI**

Asrorova Saodat Abdulloyevna

*Buxoro shahar politexnikumi Xalqaro bo'limning O'quv-uslubiy va
metodik ta'minlash bo'yicha bosh mutaxasisi*

Avazxonova Elmira Qahramonjon qizi

*Buxoro shahar politexnikumi Xalqaro bo'limning O'quv-uslubiy va
metodik ta'minlash bo'yicha bosh mutaxasisi*

Annotatsiya. *Ushbu Maqolada Buxoro shahar politexnikumida “Pearson BTEC” xalqaro ta'lim dasturining amaliyotga joriy etilishi, o'quv jarayonining xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilishi hamda xorijiy hamkorlik aloqalarining rivojlanish istiqbollari yoritilgan. Shuningdek, “Pearson” kompaniyasi vakillari va O'zbekiston Professional ta'limni rivojlantirish instituti mutasaddilari tashrifi doirasida amalga oshirilgan faoliyat tahlil qilinadi.*

Tayanch iboralar: *Pearson BTEC, xalqaro ta'lim dasturi, kasbiy ta'lim, innovatsion metodika, xalqaro hamkorlik, o'quv-uslubiy ta'minot.*

**ПРОЦЕССЫ РЕАЛИЗАЦИИ МЕЖДУНАРОДНОЙ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПРОГРАММЫ PEARSON BTEC В
БУХАРСКОМ ГОРОДСКОМ ПОЛИТЕХНИКУМЕ**

Асророва Саодат Абдуллоевна

*Главный специалист по учебно-методическому обеспечению
международного отдела Бухарского городского политехнического
института*

Авазхонова Эльмира Кахрамонджон кызы

*Главный специалист по учебно-методическому обеспечению
международного отдела Бухарского городского политехнического
института*

Аннотация. В данной статье рассматривается реализация международной образовательной программы Pearson BTEC в Бухарском городском политехническом институте, гармонизация образовательного процесса с международными стандартами, перспективы развития зарубежного сотрудничества, а также анализируются мероприятия, проведенные в рамках визита представителей компании Pearson и сотрудников Узбекского института развития профессионального образования.

Ключевые слова: Pearson BTEC, международная образовательная программа, профессиональное образование, инновационная методика, международное сотрудничество, учебно-методическое обеспечение.

PROCESSES OF IMPLEMENTING THE PEARSON BTEC INTERNATIONAL EDUCATION PROGRAM AT BUKHARA CITY POLYTECHNIC

Asrorova Saodat Abdulloyevna

*Chief Specialist for Educational and Methodological Support of the
International Department of Bukhara City Polytechnic*

Avazhonova Elmira Kahramonjon kizi

*Chief Specialist for Educational and Methodological Support of the
International Department of Bukhara City Polytechnic*

Annotation: This article discusses the implementation of the Pearson BTEC international educational program at the Bukhara City Polytechnic, the harmonization of the educational process with international standards, and the

prospects for the development of foreign cooperation. It also analyzes the activities carried out within the framework of the visit of representatives of the Pearson company and officials of the Uzbekistan Institute for the Development of Professional Education.

Keywords: *Science and Technology, Education, Knowledge, Skill, Richpeace CAD, Digital Technology, Design and Technical Requirements, Methodological Requirements, Pedagogical Requirements etc.*

Kirish. Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimi har bir davlatning strategik resursiga aylanib bormoqda. Ta'lim sifati iqtisodiy rivojlanish bilan chegaralanib qolmay, balki ijtimoiy barqarorlik va madaniy taraqqiyotning ham asosi bo'lib hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim sifatini baholash va uni boshqarish global va milliy darajada doimiy e'tibor markazida turadi. Xalqaro ta'lim dasturlari jumladan, PISA (Programme for International Student Assessment), TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study), va Pearson BTEC (Business and Technology Education Council) kabi dasturlar mamlakatlarning ta'lim tizimini chuqur tahlil qilish va taqqoslash imkonini yaratadi. O'zbekiston ham so'nggi yillarda bu xalqaro ta'lim dasturlarida faol yo'lga qo'ya boshladi.

Respublika xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida ko'plab ishlar amalga oshirilyapti. Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida xalqaro dasturlarni joriy etish, o'qitishning kompetensiyaviy yondashuviga o'tish va raqamli o'quv muhitini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Shu nuqtayi nazardan, **Buyuk Britaniyaning "Pearson Education Ltd." kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan BTEC (Business and Technology Education Council)** dasturi mamlakatimiz kasbiy ta'lim tizimida innovatsion model sifatida e'tirof etilmoqda. BTEC dasturi o'quvchilarga nazariy bilim bilan bir

qatorda amaliy kompetensiyalarni rivojlantirish, mustaqil fikrlash va real loyihalar ustida ishlash imkonini beradi. Aynan shu yo'nalishda Buxoro shahar politexnikumida so'nggi yillarda samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

2025-yil 8-oktabr kuni Buxoro shahar politexnikumiga "Pearson" kompaniyasi markaziy boshqarma rahbari Sally Peacock hamda Professional ta'limni rivojlantirish instituti bo'lim boshlig'i Madjitov Abdumalik tashrif buyurdilar. Mazkur tashrif Pearson BTEC xalqaro ta'lim dasturlarining amaliyotga joriy etilish jarayonlari bilan yaqindan tanishish maqsadida tashkil etildi. Mehmonlar o'quv muassasasining moddiy-texnik bazasi, o'quv jarayonining tashkiliy jihatlari hamda zamonaviy o'quv-uslubiy vositalar bilan tanishdilar. Shuningdek, ular o'quvchi va talabalarning xalqaro dasturlar doirasidagi yutuqlari, o'qishga bo'lgan qiziqishlari va kelgusidagi maqsadlari yuzasidan samimiy suhbatlar o'tkazdilar. Tashrif davomida Xalqaro ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish bo'limi faoliyati ham o'rganildi. Bo'lim xodimlari bilan o'tkazilgan uchrashuvda hujjatlarni xalqaro talablarga muvofiq yuritish, ta'lim jarayonini BTEC standartlari asosida tashkil etish, amaliyot darslarini takomillashtirish borasida foydali maslahatlar va tavsiyalar berildi.

BTEC dasturi amaliy ta'limga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish, mustaqil ishlash va muammoni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Dastur quyidagi afzalliklari bilan ajralib turadi:

- An'anaviy imtihonlar o'rniga loyiha, portfolio va amaliy topshiriqlar asosida baholash tizimi qo'llaniladi;

- O'quvchilarda kasbiy fikrlash, ijodiy yondashuv va jamoada ishlash malakalari shakllanadi;

- BTEC diplomlari Buyuk Britaniya, AQSh, Kanada, Avstraliya va 70 dan ortiq mamlakatlarda tan olinadi;

- Bitiruvchilar xorijiy oliy ta'lim muassasalarida o'qishni davom ettirish yoki xalqaro kompaniyalarda faoliyat yuritish imkoniga ega bo'ladilar.

Buxoro shahar politexnikumida BTEC dasturining joriy etilishi natijasida

o'qituvchilarning malakasi oshmoqda, o'quv jarayoniga zamonaviy o'qitish metodlari tatbiq etilmoqda. Tashrif yakunida tomonlar o'zaro hamkorlikni kengaytirish, o'qituvchilarni xalqaro malaka oshirish dasturlariga jalb etish, o'quv-uslubiy hujjatlarni yangilash hamda o'quv dasturlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish masalalarida kelishuvlarga erishdilar. Bu jarayonlar nafaqat ta'lim sifati, balki Buxoro shahrining ta'lim tizimidagi xalqaro nufuzini oshirishga ham xizmat qiladi.

Xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish – zamonaviy ta'limning ajralmas qismidir. Pearson BTEC dasturining Buxoro shahar politexnikumida bosqichma-bosqich tatbiq etilishi kasbiy ta'lim tizimining raqamli, kompetensiyaviy va amaliy yo'nalishga o'tishini ta'minlaydi. 2025-yil 8-oktabrdagi uchrashuv xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, ta'lim sifatini oshirish va yoshlarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish yo'lida muhim qadam bo'ldi. Ushbu tashabbus o'z navbatida O'zbekiston ta'lim tizimini jahon miqyosidagi ilg'or standartlarga yaqinlashtiruvchi samarali bosqich sifatida baholanadi